O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
BUYRUG‘I

9 iyun 2025 yil. **1333-son** Toshkent sh.

ORX5460

2025/2026-o‘quv yilida Toshkent davlat tibbiyot universitetiga o‘qishga qabul qilish jarayonini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-81-son farmoni, 2022-yil 15-iyundagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-279-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish, talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 393-son qarori, Vazirlar Mahkamasining “Alohida iqtidor talab etiladigan baklavriat ta’lim yo‘nalishlarga kirish va test sinovlarsiz, kasbiy (ijodiy) imtihonlar orqali qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2018-yil 27-iyuldagi 588-son qarori, Vazirlar Mahkamasining “Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2022-yil 11-dekabrdagi 17-son qarori va 2021-yil 6-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliy ta’lim tashkilotlarining qo‘shma ta’lim dasturlari asosida ta’lim faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 421-son va 2008-yil 4-avgustdagi 169-son qarori bilan tasdiqlangan “Xorijiy fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish va o‘qitish tartibi to‘g‘risida”gi nizomlari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 27-maydagi “2025/2026-o‘quv yili uchun respublika oliy ta’lim tashkilotlariga qabul jarayonini yuqori saviyada tashkil etish to‘g‘risida”gi 197-son buyrug‘iga muvofiq, Toshkent davlat tibbiyot universitetiga (keying o‘rinlarda - Universitet) 2025/2026-o‘quv yilida talabalar qabulini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Universitetga 2025/2026-o‘quv yilida o‘qishga qabul qilish bo‘yicha mas’ul kotib etib Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor Israilov Jaxongir Djamshidxonovich belgilansin hamda Universitet qabul komissiyasining tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: KX88596547

2. Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor N.L.Asqarov, Qabul komissiyasining mas’ul kotibi J.D.Israilov va Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi rahbari A.K.Musaxonovlarga:

- Abituriyentlar va ularning ota-onalarini qiziqtirgan savollarga tezkor javob berishini ta’minlash uchun 2025-yil 5-iyundan faoliyat yuritadigan “Call markaz”i tashkil etilsin va mazkur markazda faoliyat yurituvchi xodimlarning tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

– “Call markaz” 2025-yil 5-iyundan har kuni (yakshanbi kunidan tashqari) soat 09:00 dan 18:00 gacha faoliyat olib borishi ta’minlansin;

– Qabul komissiyasi tarkibida faoliyat yurituvchi 1-2 ilovalarda nomlari keltirilgan xodimlardan iborat “Maslahat markazi” tashkil qilinsin;

– “Maslahat markazi” faoliyati, qabul parametrlari, fanlar majmuasi kabi qabul jarayonlariga oid batafsil ma’lumotlarni universitetga tashrif buyurgan fuqarolarga yetkazish hamda universitetning rasmiy veb-saytida doimiy “Qabul-2025” bo‘limi ma’lumotlari yangilanib borilsin.

– Qabul jarayonlariga jalb etilgan xodimlar bilan o‘rnatilgan tartibda xizmat shartnomalari tuzilsin.

3. Qabul komissiyasi faoliyatini olib borishga yaqindan yordam berib, ta’lim yo‘nalishlari kesimida texnik kotibiyat ishlarini bajarish uchun Qabul komissiyasiga ko‘maklashuvchi texnik xodimlar guruhi tarkibi Qabul komissiyasi mas’ul kotibining tegishli bildirishnomasi asosida shakillantirilishi inobatga olinsin.

4. Qabul komissiyasi raisi o‘rinbosari etib O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor K.N.Xaitov belgilansin.

5. Qabul komissiyasi mas’ul kotibi J.D.Israilov va Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi rahbari A.K.Musaxonovlarga:

- Maxsus pedagogika: surdotarjimonlik faoliyati ta’lim yo‘nalishiga kasbiy (ijodiy) imtihoni bilan bog‘liq barcha jarayonlarni yuqori saviyada tashkil etilsin;

- Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni suhbatlarini tashkil etilishi bilan bog‘liq barcha jarayonlar o‘rnatilgan tartibda va belgilangan muddatda tashkillashtirilsin;

- Qabul komissiyasi mas’ul kotibi o‘rinbosari rahbarlik qiluvchi ishchi guruh tashkil etilsin.

6. Qabul komissiyasi mas’ul kotibi J.D.Israilovga:

- Qabul komissiyasi, “Call markaz”, Qabul komissiyasiga ko‘maklashuvchi texnik guruhi va Maxsus komissiyaga jalb etilgan xodimlarga yuklatilgan vazifalarni talab darajasida bajarilishi nazorat qilinsin;

- har oyning 25 sanasiga qadar Qabul jarayonlariga jalb etilgan xodimlarning bajargan ish hajmi hamda faoliyat samaradorligidan kelib chiqib, ularni rag‘batlantirish haqidagi bildirishnomalar kiritilib borilsin;

7. Qabul jarayonlarida ishtirok etuvchi xodimlar boshqa ishga o‘tgan taqdirda yoki xizmat zaruriyatiga binoan tegishli vazifalarni bajarish boshqa shaxslarga yuklatilishi mumkinligi inobatga olinsin.

8. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Rektor **Sh.A.Boymuradov**